

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 2. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ***Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна*ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС
ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 10-15*Umarov Sardor Yakubovich*QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI,
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR 16-20**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ***Shadiyeva Gulnora Mardiyevna*O'ZBEKISTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH
YO'LLARI..... 21-29*Халилдинов Азизбек Абдуқаххорович*КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ
БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 30-34*Мавлянов Мажид, Урдушев Хамракул*

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 35-45

*Асроров Азизбек Исомиддин угли*ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 46-52*Хайдарова Дурдона Шухратжон қизи, Ачилбойева Севинч О'ткир қизи*

МАНАЛЛИЙ BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

*Камалов Акмал Сайдакбарович*ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ
УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ 61-68*Namazov Gafur Shokulovich*

IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH 69-75

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI 76-81

Kadirova Ziyoda Rahimdjanovna

ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI 82-86

Turdiyev Bexruz Sobirovich

JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI 87-92

Alimatova Nargis Abduxalilovna

KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI 93-98

Abdullayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi

MA'NAVIYAT – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

<i>Кувандиков Шокир Облокулович</i> МАҲМУДХҲҲЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ	104-111
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR	112-119
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> BADIIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI	120-125
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Saitova Nilufar Djumaydillayevna</i> YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIIY IFODALASH TENDENSIYALARI	126-130
<i>Nurmanov Furqat Hayitqulovich</i> O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR	131-137
<i>Qudratova Sitora Olimovna</i> AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI.....	138-148
<i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna</i> METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV	149-153
<i>Qodirova Madinabonu Murodjon qizi</i> LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI	154-159
<i>Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз</i> ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ	160-165
<i>Azimova Aziza Alisher qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI	166-172
<i>Shoymardonov Ilhom Alixonovich</i> BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI	173-178
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI....	179-184
<i>Mirzayev Jasur, Madalov Navruz</i> THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE.....	185-190
<i>Yuan Xiaowei</i> ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY	191-197
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ражабов Нариман Шарифбаевич</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	198-206
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK	

HUQUQI OBYEKTLARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O'RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI.....	207-212
<i>Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li</i> TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	213-220
<i>Раимова Шохсанам Ғайратжонова</i> РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ.....	221-227
<i>Mukimov Bobur</i> CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL.....	228-234
<i>Нодирахон Абдурахманова</i> ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА.....	235-239
<i>Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли</i> ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА.....	240-246
<i>Turakulova Nazira</i> MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIIY BOSHQARISH.....	247-260
<i>Якубов Бекзод Эркинбаевич</i> КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....	261-265
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Мамажонов Хошимжон Абдумаликович</i> ФИЗИКА ФАНИНИ ИЈОДИЙ О'ЗЛАСHTIRISH YO'LLARI (АКАДЕМИК ЛИТСЕYLAR MISOLIDA).....	266-271
<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARIDA ISPAN TILI BO'YICHA IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI O'QITISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHTI.....	272-281
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i> TASVIRIIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI.....	282-287
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i> KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	288-291
<i>Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li</i> IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI.....	292-296
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM.....	297-304
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> TASVIRIIY SAN'ATNING O'QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI.....	305-310

Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK

ORGANAYZERLARNING ROLI 311-317

Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna

SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI..... 318-322

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Shadiyeva Gulnora Mardiyevna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, i.f.d., prof.
gulnora.shodiyeva@mail.ru

O'ZBEKISTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH YO'LLARI

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda tashqi savdo siyosatining iqtisodiyotni rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati, eksportning oshishining iqtisodiy o'sishga ta'siri qandayligi hamda hozirgi kundagi mamlakatimizning eksport aloqalari, mahsulotlar eksporti geografiyasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, iqtisodiy o'sish, tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport, eksport geografiyasi, investitsiya, mahsulot hajmi.

Shadiyeva Gulnora Mardiyevna

Samarkand Institute of Economics and Service

WAYS OF INFLUENCE OF EXPORT GROWTH ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN

Abstract. The article describes the role and importance of foreign trade policy in the development of the economy in our country, the effect of the increase in exports on economic growth, as well as the current export relations of our country and the geography of product exports.

Key words: foreign trade, economic growth, foreign economic relations, export, export geography, investment, product volume.

Шадиева Гулнора Мардиевна

Самаркандский институт экономики и сервиса, д.э.н., профессор.

ПУТИ ВЛИЯНИЯ РОСТА ЭКСПОРТА НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье рассматривается роль и значение внешнеторговой политики в развитии экономики нашей страны, влияние увеличения экспорта на экономический рост, а также современные экспортные связи нашей страны и география экспорта продукции.

Ключевые слова: внешняя торговля, экономический рост, внешнеэкономические связи, экспорт, география экспорта, инвестиции, объем продукции.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N03>

Kirish. Mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan moddiy boyliklar eksport tarkibi milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni bilan bog'liq. Sanoati rivojlangan mamlakatlarga sanoat mahsulotlari, ayniqsa, mashinasozlik mahsulotlari va texnologiyalar eksport qilish xos bo'lsa, qoloq agrar iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar eksportida xom ashyo va oziq-ovqat asosiy rol o'ynaydi. Yuklarni tashish, vositachilik

operatsiyalari, turizm, ilmiytexnika aloqalaridan va boshqalar xizmatlarni sotishdan olinadigan daromadlar ko'rinmas eksportni tashkil etadi va iqtisodiyoti rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda uning ahamiyati ortib bormoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish va hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi” Endi esa “Respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish” zarurligi qayd etilgan[1]. Har qanday davlat uchun eksport- import va chet ellarda boshqa xarajatlarni to'lash uchun zarur bo'lgan chet el valyutasining asosiy manbaidir. Shuning uchun, davlatning tashqi iqtisodiy siyosatida eksportni kengaytirish muhim masala hisoblanadi va davlat eksport uchun mo'ljallangan ishlab chiqarishni qo'llab quvvatlashning turli shakllarini keng qo'llaydi (soliq imtiyozlari va boshqalar moliyaviy ko'maklar; eksportni davlat tomonidan kreditlash). Eksportni cheklash aksariyat hollarda muayyan mamlakatlar bilan olib boriladigan savdoga embargo joriy etish yo'li bilan siyosiy maqsadlarda amalga oshiriladi. Ayrim tovarlar eksporti ba'zan iqtisodiy yoki ekologik sabablarga ko'ra cheklanadi (mazkur tovarning mamlakat iqtisodiyoti uchun muhimligi, yo'qolib borayotgan hayvonlar yoki o'simliklar turlarini, milliy madaniy badiiy boyliklarni asrash va boshqalar). O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga muvofiq, tovarlar eksporti bojxona rejimida, bojxona to'lovlari to'langanidan keyin, iqtisodiy siyosat tadbirlariga rioya etilgan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa talablar bajarilgan hollarda O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan chetga chiqariladi. Mamlakatimiz uchun tashqi savdoni isloh qilish va eksportni rag'batlantirish – erkin ayirboshlanadigan valyutada daromadlar o'sishiga olib keladi. U jahon iqtisodiga integratsiyalashuv kuchayishida muhim omil sanaladi. Eng muhimi, u iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlaydigan milliy valyutani mustahkamlash, iqtisodda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish kabi eng dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan muhim harakat hisoblanadi. Bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiyalashuvining kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashuviga sabab bo'lmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shakli sifatida tashqi savdo mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda mustaqillik yillaridan to hozirgi kunga qadar bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Endilikda jahon bozorlarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi va sifatini yanada yaxshilash, mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Dunyo mamlakatlarida tashqi savdo strategiyalarida tub o'zgarishlar namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda ham tashqi savdo siyosatini takomillashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 13 apreldagi PF5012-sonli savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni mamlakatimiz tashqi savdo aloqalarining samaradorligini yanada oshirish, tashqi savdoni liberallashtirish, eksport salohiyatini mustahkamlash hamda raqobatdosh mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish tizimini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan xorijiy sheriklar o'rtasida savdo sohasida uzoq muddatli barqaror sheriklik munosabatlarini shakllantirish maqsadlariga xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-dekabrda “Eksportga ko'maklashish va


uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4069-son qaroriga muvofiq, eksportni qo'llab-quvvatlash milliy tizimi yaratildi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida eksportni rag'batlantirish agentligi tashkil etildi. Shuningdek, 205 nomdagi tovarlarni eksport qilishda transport xarajatlarining 50 foizini qoplab berish yo'lga qo'yildi. Jumladan O'zbekistonda elektrotexnika sanoati korxonalarini tomonidan kelgusida 1,3 milliard dollarlik elektrotexnika mahsulotlarini import qilishi ko'zda tutilgan. Mamlakatimizda va qo'shni bozorlarda yarimo'tkazgichlar va elektron platalarga nisbatan ortib borayotgan talab 6 milliard dollarga baholanmoqda. Kelgusi 5 yilda mamlakatimizda mis ishlab chiqarishni 3 baravarga oshirish va uni tayyor mahsulot shaklida qayta ishlash ulushini 2026 yilga borib 70 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bu olib borilayotgan izlanishlarimizni dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston hududlarining eksport salohiyatining oshishi iqtisodiy o'sishga va yalpi hududiy mahsulotning o'sish darajasiga ta'siri, shuningdek, turli qirralari bo'yicha xorij va maxalliy olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, xorijlik olimlar E.S.Raynert[2], J.S.Goldstein, J.C. Pevehouse [3] R.Hausmann, Hwang J., D. Rodrik [4], D.D.C.Prince & O.J.Fitton[5], kabi olimlar hududlarning iqtisodiy o'sishining institutsional jihatlari va eksport strategiyasining xatarlarini o'rganishgan. Маҳаллий иқтисодчи олимлардан. Sh.X.Nazarov [6], A.N.Samadov[7], A.M.Sadikov [8], S.Sh.To'rabekov [9] lar tomonidan tashqi savdo operatsiyalarini liberallashtirish va respublika hududlari, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqot olib borishgan. O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, yuqoridagi mualliflar tomonidankorxonalarda eksportbob mahsulotlar ishlab chiqarish va u orqali ularning eksport potentsialni oshirish muammolariga e'tibor qaratishmagan. Shu bois ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar olib borilishi dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston tashqi savdo siyosatining iqtisodiyotni rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati, eksportning oshishining iqtisodiy o'sishga ta'siri va ulardan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, statistic ma'lumotlarni va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Asosiy qism. O'zbekiston uchun tashqi savdoni isloh qilish va eksportni rag'batlantirish – erkin ayirboshlanadigan valyutada daromadlar o'sishiga olib keladi. U jahon iqtisodiga integratsiyalashuv kuchayishida muhim omil sanaladi. Eng muhimi, u iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlaydigan milliy valyutani mustahkamlash, iqtisodda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish kabi eng dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan muhim harakat hisoblanadi. Bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiyalashuvining kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashuviga sabab bo'lmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shakli sifatida tashqi savdo mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda mustaqillik yillaridan to hozirgi kunga qadar bu borada keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Endilikda jahon bozorlarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi va sifatini yanada yaxshilash, mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Sunggi yillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar orqali mamlakatimizdan tovarlar va xizmatlar ekport qilinadigan

mamlakatlar soni ortgani va tovar nomenklaturasidagi mahsulotlar turi ham ko'paygani aniqlandi: 2017–2022-yillar mobaynida mamlakatimizning eksport geografiyasi 16 ta mamlakatga kengayib, bugungi kunda mahsulotlarimiz 117 ta mamlakatga yetib bormoqda. Xususan, Peru (3 965,9 ming AQSh dollari), Albaniya (3 196,3 ming AQSh dollari), Shimoliy Makedoniya (1 454,7 ming AQSh dollari), Senegal (311,7 ming AQSh dollari), Mavrikiy (303,1 ming AQSh dollari) kabi mamlakatlarga ham mahsulotlarni eksport qilish yo'lga qo'yildi. (1-rasm. 2017-2022-yillarda O'zbekiston eksport geografiyasining o'zgarishi) Tovar nomenklaturasida 2017-yildagi 179 xil mahsulot turi 2022-yilga kelib 200 dan ortdi. Shuningdek, paxta tolasi eksportidan voz kechilib, uning o'rniga paxtadan tayyorlangan yuqori qo'shilgan qiymati tovarlar eksporti yo'lga qo'yildi. Jumladan, umumiy qiymati 1 613,5 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan paxtadan yigirilgan ip, 644,9 mln. dollarlik tayyor trikotaj va to'qimachilik mahsulotlari, 242,8 mln. dollarlik naqshli mato, 131,6 mln. dollarlik gazlamalar, 78,1 mln. dollarlik ipak va ipak mahsulotlari, 42,1 mln. [10] dollarlik gilam mahsulotlari eksport qilindi. Maishiy texnika vositalaridan changyutgich, kir yuvish mashinasi, gaz plitasi, televizor kabi tovarlar quyidagi mamlakatlarga yetkazib berilmoqda: Changyutgichlar – Qozog'iston, Rossiya, Ukraina, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjonga; Kir yuvish mashinalari – Tojikiston, Qozog'iston, Rossiya, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Moldova, Turkmaniston, Turkiyaga; Gaz plitalari – Qozog'iston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Armanistonga; Televizorlar – Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Armaniston, Qirg'izistonga.[11]



1-rasm. 2017-2022-yillarda O'zbekiston eksport geografiasining o'zgarishi [12]

Bundan tashqari 2017-2022 O'zbekiston va Xitoy savdo hamkorligida ham eksportning o'sishi kuzatilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, bu yillar davomida O'zbekistonning Xitoyga eksportida ham, Xitoydan importida ham o'sish kuzatilgan. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro savdosotiq hajmi 2017-yilda 4,8 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 8,9 milliard AQSh dollariga yetgan. O'z navbatida eksport hajmi 23,4% ga, import hajmi esa 134,7% ga o'sgan. 2022-yilda O'zbekiston Xitoyga asosan mineral yoqilg'i (849,5 mln. AQSh dollari), xizmatlar (703,0 mln. AQSh dollari), sanoat mahsulotlari (629,8 mln. AQSh dollari), kimyo mahsulotlari (133,3 mln. AQSh dollari) va oziq-ovqat mahsulotlari (108,8 mln. AQSh dollari) ni eksport qilgan va Xitoydan asosan mashinalar va asbobuskunalar (3644,5 mln. AQSh dollari), sanoat mahsulotlari (1259,1 mln. AQSh dollari), kimyo mahsulotlari (821,9 mln. AQSh dollari), turli tayyor mahsulotlar (470,8 mln. AQSh dollari) va xizmatlar (90,2 mln. AQSh dollari) xarid qilgan. Mahalliy eksportchilar qimmatbaho metallar, organik kimyoviy birikmalar, shuningdek, meva va yong'oqlarni Xitoy bozorida sotish bo'yicha katta imkoniyatga ega. Buning sabablari quyidagicha: 1. O'zbekiston ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish uchun katta salohiyatga ega; 2. Ko'rib chiqilayotgan davrda Xitoyda bu mahsulotlarga talab barqaror o'sgan va 2021-yilda qimmatbaho metallar importining umumiy hajmi 77,4 milliard dollarni, organik kimyoviy birikmalar importining umumiy hajmi 60,2 milliard dollarni, mevalar va yong'oqlar importining umumiy hajmi 16,0 milliard dollarni tashkil etgan. Shuningdek, 2023-yil 29-martda mamlakatimizga tashrif buyurgan Xitoy delegatsiyasi bilan o'tkazilgan muzokaralarda Xitoyning yetakchi kompaniyalari yordamida O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika, transport infratuzilmasini rivojlantirish, sanoat parklari va qishloq xo'jaligi klasterlarini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi 2022 yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasini (matnda TSA) 50,0 mlrd. AQSH dollariga yetishini va 2021 yilga nisbatan 7,8 mlrd. AQSH dollariga yoki 18,6 % ga oshishini ta'minladi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etildi.

Tashqi savdo aylanmasi va balansi
(yanvar - dekabr) mln. AQSH dollari [13]


	2021 yil	2022 yil	O'sish sur'ati % da	Jamiga nisbatan % da
Tashqi savdo aylanmasi	42 170,50	50 008,40	118,6	x
Eksport	16 662,80	19 309,10	115,9	100
tovarlar	9 971,30	11 239,30	112,7	57,5
xizmatlar	2 581,70	3 959,50	153,4	20,5
nomonetar oltin	4 109,80	4 110,30	100	22
Import	25 507,70	30 699,30	120,4	100
tovarlar	23 740,40	28 172,90	118,7	91,4
xizmatlar	1 767,30	2 526,30	142,9	8,6

Saldo	-8 844,90	-11 390,20	x	x
-------	--------------	---------------	---	---

TSAda eksport hajmi 19 309,1 mln. AQSH dollariga (15,9%ga ko'paydi) va import hajmi 30 699,3 mln. AQSH dollariga (20,4%ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 11 390,2 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi. Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo'shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (yanvar-dekabr, mlrd. AQSh dollari, o'sish sur'ati, % da

Diagramma 1













Yuqoridagi diagrammada[14] ko'rinib turibdiki, 2022 yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 50,0 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi, 2018 yilga nisbatan 16,6 mlrd. AQSh doll. yoki 49,6 % o'sish sur'ati qayd etilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, tashqi savdo aylanmasining YalMganisbati ham sezilarli darajada o'sib bormoqda, bu savdo jihatidaniqtisodiyotning o'sishidan dalolat bermoqda. Ma'lumki, **tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo'shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar [15]

(2022-yil yanvar – dekabr, mln. AQSH dollari)

Rossiya Federatsiyasi	XXP	Qozog'iston	Turkiya	Koreya Respublikasi
TCA – 9 279,7	TCA – 8 923,8	TCA – 4 621,0	TCA – 3 223,9	TCA – 2 340,6

Ekspart: 3 066,9 Import: 6 212,8  18,6 %	Ekspart: 2 519,0 Import: 6 404,8  17,8 %	Ekspart: 1 379,7 Import: 3 241,2  9,2 %	Ekspart: 1 507,4 Import: 1 716,5  6,4 %	Ekspart: 48,1 Import: 2 292,5  4,7 %
Qirg'iz Respublikasi	Germaniya	Turkmaniston	Afg'oiston	Hindiston
TCA – 1 260,0	TCA – 1 159,3	TCA – 926,3	TCA – 759,9	TCA – 690,5
Ekspart: 979,3 Import: 280,7  2,5 %	Ekspart: 88,9 Import: 1 070,4  2,3 %	Ekspart: 194,8 Import: 731,5  1,9 %	Ekspart: 750,6 Import: 9,3  1,5 %	Ekspart: 35,6 Import: 654,9  1,4 %

O'zbekiston Respublikasi jahonning 204 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (18,6 %), XXRda (17,8 %), Qozog'istonda (9,2 %), Turkiyada (6,4 %), Koreya Respublikasida (4,7 %), Qirg'iz Respublikasi (2,5 %) va Germaniyada (2,3 %) qayd etilgan. Yalpi ichki mahsulotning (YIM) real o'sishi nafaqat mehnat va kapital miqdorining o'sishiga, balki multiplikator effekti orqali eksportning o'sishiga tayanadi. Eksportga yo'naltirilgan siyosat tufayli eksportning o'sishi resurslarni samarali taqsimlash, potensialdan unumli foydalanish orqali bilvosita iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot uchun go4worldbusiness.com saytidan yanvar-mart oylaridagi jami 26000 dan ortiq ma'lumot veb skreping (Web Scraping) usulida olindi. O'zbekiston eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni aniqlash uchun RCA (revealed comparative advantage - aniqlangan qiyosiy ustunlik) indeksi hisoblandi va asosan xususiy sektor tomonidan ishlab chiqariladigan 25 xil mahsulot turi tanlab olindi. Ular uchun hududlarning alohida RCA indeklari ham hisoblandi. Natijada hududlarimiz va dunyoning turli mintaqalarida joylashgan potensial bozorlarni bir-biri bilan bog'lash bo'yicha aniq tavsiyalar berish imkoniyati paydo bo'ldi. Tahlil natijasida Fransiya, Gollandiya, Polsha, Ispaniya, Avstriya, Shvetsiya, Italiya, Belgiya, Bangladesh, Xitoy Syangani, Yaponiya, Singapur, Quvayt, BAA, Turkiya, Tailand, Qatar, Janubiy Koreya, Misr, Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlarda mevasabzavotlar, quritilgan mevalar, turli xil meva sharbatlari, yong'oq kabi mahsulotlarga bo'lgan talab yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha Namangan, Jizzax, Xorazm, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari yaxshi imkoniyatga ega qayd etilgan mamlakatlarga eksportni doimiy ravishda yo'lga qo'yish mazkur viloyatlarning iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. AQSh, Fransiya, Germaniya, Xitoy, Hindiston, Saudiya Arabistoni va BAA kabi mamlakatlarda boshqoqli ekinlar, g'alla, un, ziravorlarga talab yuqori. Ushbu mahsulotlarni eksport qilishda esa Buxoro, Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona, Samarqand va Xorazm viloyatlari tadbirkorlari nisbiy ustunlikka ega. Erkaklar va ayollar kiyimlari, to'qimachilik mahsulotlari, sintetik tola va turli xil tekstil mahsulotlariga bo'lgan talab AQSh, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Belgiya, Gollandiya, Daniya, Gretsiya, Germaniya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, BAA, Janubiy Koreya, Hindiston, Livan, Quvayt, Malayziya, Singapur, Bangladesh va Tailand davlatlarida yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu tovarlarni eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan Namangan, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Andijon, Samarqand viloyatlari va Toshkent shahridagi tadbirkorlar yetkazib berishi mumkin. Paxtadan

yigirilgan ip, turli xil matolar, sintetik tola, ipak, gilam, teri va charm mahsulotlariga bo'lgan talab Germaniya, Italiya, Gollandiya, Fransiya, Belgiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Isroil, Qatar, Yaponiya, Xitoy Syangani, Tailand, Indoneziya, Malayziya, Hindiston va BAA kabi mamlakatlarda yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Hududiy RCA indeksiga ko'ra, ushbu mahsulotlarni eksport qilishda Samarqand, Qashqadaryo, Andijon, Farg'ona, Buxoro viloyatlari, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlar yuqori potensialga ega. Shuningdek, O'zbekiston turli xil o'g'itlar va o'g'it mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham nisbiy ustunlikka ega bo'lib, ushbu mahsulotlarga asosan AQSh, Braziliya, Germaniya, Polsha, Bangladesh, Hindiston va Vyetnam davlatlarida talab yuqori. Bu mahsulotlarni eksport qilishda esa Farg'ona viloyati va Toshkent shahri tadbirkorlari nisbiy ustunlikka ega. Aytib o'tish lozimki, hududlarda transport va eksport infratuzilmasining ushbu potensial bozorlarga chiqish uchun moslashtirilishi, eksportchi korxonalariga yaqindan konsultativ va moliyaviy ko'mak berilishi eksport ko'laminig oshishi, samaradorlikning yaxshilanishi, innovatsion faoliyatning jadallashishi va aholi turmush darajasining oshishiga olib keladi. Mamlakatimizda ishlab chiqarish sur'atlarini oshirish, uni modernizatsiya qilish, yangi texnikatexnologiyalardan keng foydalanish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, maqsadida integratsiyaga bo'lgan e'tibor kuchaytirilmoqda. Shuni ham aytish kerakki, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Hozirda mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- eksport tarkibida tayyor mahsulot salmog'ini oshirish maqsadida ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksportdagi ishtirokini rag'batlantirish, zarur shartsharoitlarni yaratish;
- har bir tarmoq va hudud kesimida eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ko'zda tutuvchi, o'zaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish va boshqalar.

Bu yo'nalishlarga ustuvor e'tibor qaratish va ular bo'yicha amaliy tadbirlarni belgilash, pirovardida mamlakat eksport imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish hamda iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, yurtimizda tashqi savdoni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatda keng ishtirok etishi uchun teng va qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, savdo operatsiyalarini amalga oshirishda ortiqcha to'siq va g'ovlarni bartaraf etish maqsadida:

- Import tovarlarini yuklashdan oldin inspeksiyadan o'tkazish bekor qilindi;
- Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimlarini takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda Respublikamizda elektrotexnika sanoati izchil rivojlanishda davom etmoqda. Bunda tarmoq korxonalariga soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar, davlat xaridlarida ishtirok etish uchun qulay sharoitlar yaratish ko'rinishida salmoqli davlat ko'magi ko'rsatiladi, eksportchilarga esa transport xarajatlarining hamda xorijiy mamlakatlarda o'z mahsulotlari ko'rgazmasini o'tkazish uchun sarflanadigan mablag'larning ma'lum qismi qoplab beriladi. Elektrotexnika sanoati korxonalarida raqobat maxsus izlanishlarini joriy etish, o'zgaruvchan bozor talablarini hamda tashqi muhitni o'rganish asosida mahsulot turi bo'yicha ishlab chiqarish dasturini optimallashtirish zarur.

Elektrotexnika sohasi rivojlanishidagi mamalkatimiz potentsiali hali yuqori. Birgina yashil energetika yoʻnalishida amalga oshirilayotgan gigant loyihalar mahalliy ishlab chiqaruvchilarga yiliga kamida 1 milliard dollarlik yangi bozorlarni ochib beradi. Elektrotexnika klasterini tashkil etish uchun puxta zamin yaratib, minglab yangi ish oʻrinlariga yoʻl ochadi.

Tahlil natijalarini inobatda olgan holda Oʻzbekiston uchun quyidagi chora-tadbirlarni tavsiya etish mumkin:

- tashqi dunyo bilan erkin raqobatlasha oladigan ishlab chiqarish sohalarini tanlab olish va ularni uzoq muddatli rivojlantirish rejasini ishlab chiqish;
- uzoq muddatli samarali sanoat strategiyasini shakllantirish (masalan, Yevropa Ittifoqi oʻz sanoat siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab qoʻygan);
- korxonalarining tashqi raqobatga bardoshlilik koʻrsatkichi boʻyicha doimiy ravishda oʻzini-oʻzi monitoring qilib borishiga turtki beruvchi mexanizmlarni qoʻllash.

Адабиётлар/Литература/References:

1. “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi. lex.uz internet sayti.
2. Райнерт Э.С. (2011) Как богатые страны стали богатыми, и почему бедные страны остаются бедными. - М.: Изд. дом Гос. ун-та Высшей школы экономики.
3. Goldstein J.S., Pevehouse J.C. (2008) International Relations. – New York: Pearson Longman.
4. Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. (2007) What You Export Matters. // Journal of Economic Growth. – (12(1)), pp.1–15.
5. Prince D.D.C. & Fitton O.J. (2016) The North West cyber security industry: Export potential assessment
6. Назаров Ш.Х. (2014) Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. –Ташкент: IFMR,212 с
7. Самадов А.Н. (2017) Иқтисодий янги босқичга олиб чиқиш муқаррар. Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси журнали, №2. 34-36 б
8. Садыков А.М. (2019) Новая стратегия развития Узбекистана: формирование, приоритеты, реализация. Монография. – Ташкент
9. “Institute for macroeconomic and regional studies”ning iqtisodiy koʻrsatkichlar tahlili 2023-y
10. Mustafakulov Sh.I., Negmatov J.B., Murodullayev N.N., Joʻrayev B.R., Ekonometrika. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent 2017, 155 b
11. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-bugun-117-mamlakatga-mahsulot-eksport-qilmoqda>
12. “Institute for macroeconomic and regional studies”ning iqtisodiy koʻrsatkichlar tahlili 2023-y
13. “Institute for macroeconomic and regional studies”ning iqtisodiy koʻrsatkichlar tahlili 2023-y
14. Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari
15. “Institute for macroeconomic and regional studies”ning iqtisodiy koʻrsatkichlar tahlili 2023-y

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).